



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘QUVCHILARDA XARITALAR BILAN ISHASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Abdullayev Ilxom Xatamovich

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsent

Ergashev Orifjon Ungarovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarning xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik asoslari yoritilgan. Xarita bilan ishlashning ahamiyati, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalar, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xarita orqali o‘quvchilarda fazoviy tafakkur, mantiqiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy fanlar, xarita, didaktika, kompetensiya, fazoviy tafakkur, pedagogik texnologiya.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ РАБОТЫ С КАРТАМИ У УЧАЩИХСЯ

Абдуллаев Илхом Хатамович

Национальный педагогический университет Узбекистана, доцент

Эргашев Орифжон Унгарович

Центр педагогического мастерства Джизакской области, старший преподаватель

Аннотация

В статье рассматриваются дидактические основы формирования навыков работы с картами у учащихся на уроках естественных наук. Анализируются значение карт, методы обучения и современные педагогические технологии, способствующие развитию пространственного мышления и аналитических навыков учащихся.

Ключевые слова: естественные науки, карта, дидактика, компетенция, пространственное мышление, педагогическая технология

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' MAP WORK SKILLS

Abdullayev Ilxom Khatamovich

National Pedagogical University of Uzbekistan, Associate Professor

Ergashev Orifjon Ungarovich

Jizzakh Regional Center of Pedagogical Mastery, Senior Lecturer

Abstract

This article discusses the didactic foundations of developing students' map skills in natural science lessons. It analyzes the importance of maps, teaching methods, and modern pedagogical technologies that enhance students' spatial thinking and analytical skills.

Keywords: natural sciences, map, didactics, competence, spatial thinking, pedagogical technologies.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan

qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida umumiy o‘rta ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu yo‘nalish ta’lim tizimiga izchil joriy etilmoqda [1, 2–3-b.].

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, tabiiy fanlar — geografiya, biologiya va ekologiya — darslarida xaritalardan foydalanish o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va kuzatuvchanligini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, xarita nafaqat axborot manbai, balki o‘quvchining mustaqil bilim olishi uchun muhim vositadir. Shu sababli o‘quvchilarda xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish didaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dars jarayonida zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning geografik savodxonligini oshirishda, ularning atrof-muhitni anglash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [2, 181–185-b.]. Tabiiy fanlar darslarida xaritalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning ushbu yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish zamonaviy didaktikaning dolzarb masalalaridan biridir. Xaritalar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Xarita orqali berilgan axborot vizual shaklda bo‘lgani sababli, u o‘quvchilarning idrok etish jarayonini yengillashtiradi va bilimlarni uzoq muddat eslab qolishda muhim vosita hisoblanadi [3, 90–101-b.].

Xaritalar bilan ishlash jarayonida quyidagi asosiy kompetensiyalar shakllanishi aniqlangan:

- **fazoviy tafakkur** — obyektlarning joylashuvi, o‘zaro masofasi va hududiy bog‘liqligini anglash;
- **mantiqiy fikrlash** — xaritadagi ma’lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish;
- **tahlil va solishtirish ko‘nikmalari** — turli hududlarni qiyoslash, o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash;
- **mustaqil xulosa chiqarish** — xarita asosida umumlashmalar qilish va qaror qabul qilish.

Didaktik nuqtayi nazardan xaritalar bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Ko‘rgazmali vosita sifatida ular o‘quv materialini aniq va tushunarli yetkazadi. Bilim manbai sifatida yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Nazorat vositasi sifatida esa o‘quvchilarning bilimini tekshirish va baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, xaritalardan samarali foydalanish o‘qituvchidan metodik mahoratni, o‘quvchidan esa faol ishtirokni talab etadi [4, 43-b.].

Geografiya ta’limida, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarda xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich, izchil va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon quyidagi uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi.

1-bosqich: Tanishtirish-Mazkur bosqichda o‘quvchilar xaritaning asosiy elementlari bilan tanishadilar. Jumladan:

- shartli belgilar va ularning mazmuni;
- masshtab va uning turlari;
- ranglar orqali ifodalangan geografik obyektlar.

Bu bosqichda ko‘proq tushuntirish, ko‘rsatish va izohlash metodlari qo‘llaniladi. Natijada o‘quvchilarda xaritani o‘qishning dastlabki ko‘nikmalari shakllanadi.

2-bosqich: Amalda qo‘llash-Ushbu bosqichda o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar:

- xaritada geografik obyektlarni topish;
- yo‘nalishlarni aniqlash (shimol, janub, sharq, g‘arb);

- masshtab asosida masofani hisoblash;
- xarita bilan ishlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish.

Bu bosqichda amaliy mashqlar, mustaqil ishlar va kichik tadqiqot topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

3-bosqich: Tahlil va umumlashtirish-Bu bosqich o'quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan:

- xarita asosida xulosa chiqarish;
- hududiy va mintaqaviy tahlil olib borish;
- tabiiy va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash;
- muammoli vaziyatlarni yechish.

Mazkur bosqichda o'quvchilar xaritaning mustaqil tahlil qilish darajasiga yetadilar.

Xaritalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli pedagogik metodlardan kompleks foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Xaritalar bilan ishlashda asosiy metodlar quyidagilardan iborat.

1. Ko'rgazmali metod. Xaritalar, atlaslar va globuslar yordamida bilimlarni vizual tarzda yetkazish ushbu metodning asosini tashkil etadi. Bu usulda xarita o'quvchining nazariy bilimini amaliy ko'nikmaga aylantiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metod orqali o'quvchi masshtab bilan ishlashda yer yuzasining asl o'lchamlarini xaritada kichraytirilgan holda ko'rib, masofalarni vizual hisoblashni o'rganadi. Koordinatalarni aniqlashda daraja to'ri — parallelar va meridianlar — yordamida nuqtaning manzilini aniq tasavvur qiladi. Balandlikni o'lchashda esa relyefni gipsometrik ranglar va gorizontallar orqali xaritada ko'rib, joyning baland-pastligini xayolan gavdalanitiradi. Bu metod darsni quruq ma'lumotdan jonli tasvirga ko'chiradi va o'quvchilarda fazoviy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Amaliy metod. Amaliy metod o'quvchilarning mustaqil mashqlar bajarishi va xarita bilan ishlash tajribasini orttirishi bilan tavsiflanadi. Masalan, xarita va masshtab bilan ishlashda o'quvchi chizg'ich yordamida xaritadagi masofani o'lchaydi va masshtab soniga ko'paytirib, joyning haqiqiy o'lchamini mustaqil hisoblaydi.

Masalan, "Tabiiy fanlar" darsligida masshtab bilan ishlashga oid quyidagi topshiriqlar misol sifatida keltirilishi mumkin [3, 90-b.; 5, 87-b.]:

1-masala. Xaritada 1:1 500 000 masshtab ko'rsatilgan. Bu son nimani anglatadi?

Yechilishi: Xaritadagi 1 sm masofa yer yuzidagi 1 500 000 sm masofaga, ya'ni 15 km ga tengligini bildiradi.

2-masala. Avstraliya va Okeaniyaning tabiiy xaritasida masshtab 1:50 000 000 ga teng.

Ikki nuqta orasidagi masofa 4 sm bo'lsa, ular o'rtasidagi haqiqiy masofa qancha kilometr ga teng?

Yechilishi: Xarita masshtabi 1:50 000 000 bo'lgani uchun xaritadagi 1 sm masofa haqiqatda 500 km ga teng.

$$4 \text{ sm} \times 500 = 2000 \text{ km}$$

Shunday qilib, tanlangan ikki nuqta orasidagi haqiqiy masofa 2000 km ga teng.

Jadvalni to'ldiring

Sonli masshtab	Nomli masshtab
.....	1 sm da 700 km
1 : 60 000 000
.....	1 sm da 300 km
1 : 8 000 000
.....	1 sm da 15 km

Koordinatalarni aniqlash-Nuqtaning kenglik va uzoqligini xarita gradus to'ridan izlab topish orqali obyektning aniq manzilini belgilash ko'nikmasi shakllanadi.

Masalan: Quyida chalkashtirib berilgan ma'lumotlardan O'zbekistonning chekka nuqtalari geografik koordinatalariga oid to'g'ri ma'lumotlarni toping va ularni ketma-ketlikda yozing:

56°, 56° 55', 45°, 45° 30', 37° 11', 35° 10', 75° 10', 72°, 73° 10'.

Balandlikni o'lchash-Gorizontallar va balandlik shkalasi asosida joyning mutlaq va nisbiy balandligini aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajariladi. Bu metod o'quvchini shunchaki kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ya'ni u xarita bilan ishlash orqali real geografik hisob-kitoblarni amalga oshirishni o'rganadi.

Masalan: Yevropa xaritasidan foydalanib, Ladoga ko'lini g'arbdan sharqqa tomon qanchaga cho'zilganligini aniqlang. Ko'lining narigi qirg'og'ini ko'rish uchun necha metr balandlikka ko'tarilish kerak?

Yechish: Ladoga ko'lining g'arbdan sharqqa tomon 1:5 000 000 masshtabli xaritada 2,6 sm masofaga cho'zilganligi aniqlanadi. 1 sm 50 km ga teng bo'lsa, unda:

$$2,6 \times 50 = 130 \text{ km.}$$
 Demak, ko'lining g'arbdan sharqqa cho'zilgan masofasi 130 km ga teng. Ko'lining narigi qirg'og'ini ko'rish uchun taxminan 1100 m balandlikka chiqish talab etiladi.

Javob: masofa — 130 km, balandlik — 1100 m.

3. Muammoli ta'lim metodi

Bu metod o'quvchiga xarita asosida savollar qo'yish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Masalan:

- Agar xaritadagi masshtab 2 marta kattalashtirilsa, unda tasvirlangan hududning maydoni qanday o'zgaradi?
- Nima uchun globusdagi masofani o'lchashda oddiy chizg'ichdan ko'ra ipdan foydalanish aniqroq natija beradi?
- Dunyoda shunday nuqta borki, undan qaysi tomonga yursangiz ham faqat janubga qarab ketasiz. U qayer?
- Dengiz sathidan 500 metr balandlikda turgan odam va 1000 metr balandlikda turgan odamning qaysi biri uzoqroq masofani ko'ra oladi? Sababini tushuntiring.

Shu kabi savollar orqali muammoli vaziyat yaratish mumkin.

Shuningdek, interaktiv metodlar orqali xaritalarga oid guruhda ishlash, munozara, "aqliy hujum", xotira mashqlari yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin.

"Xotira mashqi" metodi

Metodning maqsadi: shartli belgilarning o'quvchilar tomonidan qay darajada eslab qolingganligini aniqlash.

Metodning qo'llanilishi: o'qituvchi kartochkalarga tushirilgan shartli belgilarni o'quvchilarga ko'rsatadi, masalan:

- toshko'mir
- neft



-
toshko'mir



-neft

-

O'quvchilar esa imkon qadar tez shartli belgining nomini aytadilar. Bu usul orqali o'quvchilarning olgan bilimlarini darsning mustahkamlash bosqichida qo'llash mumkin.

Quyidagi gapni to'ldiring: _____ andozalarda tuzilgan xaritalarda meridianlar va parallellar 90° li burchak ostida kesishadigan to'g'ri chiziqlardan iborat to'rsil hosil qiladi.

Yana

bir

topshiriq:

Masshtabsiz shartli belgilar bilan GESlar va foydali qazilma konlari belgilanadimi? Javobni "ha" yoki "yo'q" deb belgilang.

Shuningdek, quyidagi ma'lumotlarning to'g'risini aniqlang va katakchalarga "ha" yoki

“yo‘q” deb yozing:

1. Yerning va boshqa sayyoralarning kosmik kemalar yordamida olingan tasviri aerosurat deyiladi.
2. Masshtabli shartli belgilar yordamida qumli cho‘llar egallagan maydonlarni aniqlash mumkin.
3. Aholi yashaydigan joylar chiziqli shartli belgilar bilan ko‘rsatiladi.
4. Yo‘llar tushuntirish belgilari bilan ko‘rsatiladi.
5. Masshtabli shartli belgilar bilan voqea va hodisalarning haqiqiy o‘lchamlari aks ettiriladi.
6. Daryo oqimining yo‘nalishi tushuntirish belgilari bilan ko‘rsatiladi.

1	2	3	4	5	6

Zamonaviy ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi xaritalar bilan ishlash imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda [6, 56-b.]. Xususan, elektron xaritalar tezkor va interaktiv ma‘lumot olish imkonini beradi; GIS (geografik axborot tizimlari) murakkab hududiy tahlillarni amalga oshirishga yordam beradi; interaktiv doskalar va multimediya vositalari esa darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki ularning axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular mustaqil ta‘lim olish va tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [5, 87-b.; 6, 45–52-b.].

Tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarning xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta‘limning muhim didaktik vazifalaridan biri hisoblanadi. Xarita o‘quvchilar uchun nafaqat ko‘rgazmali vosita, balki bilim olish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonida samarali didaktik resurs vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xaritalar bilan ishlash o‘quvchilarda fazoviy tafakkur, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ushbu ko‘nikmalar bosqichma-bosqich tanishtirish, amaliy qo‘llash hamda tahlil va umumlashtirish bosqichlari orqali shakllantiriladi. Shuningdek, xaritalar bilan ishlashni samarali tashkil etishda ko‘rgazmali, amaliy, muammoli va interaktiv metodlardan foydalanish yuqori natija beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, elektron xaritalar va GIS tizimlari o‘quv jarayonini yanada takomillashtirib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Umuman olganda, xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois ta‘lim jarayonida xaritalardan tizimli va maqsadli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5712-сон фармони. – Тошкент, 2019.–Б.2–3.
2. Вахобов Х., Алимқулов Н. Р., Султанова Н. Б. География ўқитиш методикаси. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – Б. 181–188.
3. Сангирова З. Б., Суяров К. Т., Умаралиева М. Т., Хасанова С. Ф., Хасанова Д. Т., Юлдашева М. К. Табиий фанлар: 6-синф учун дарслик. – Тошкент: Республика таълим маркази, 2022. – Б. 90–101.
4. Исматова З. А. География ўқитиш методикаси (табиий фанлар): ўқув қўлланма. – Тошкент, 2022. – Б. 43.
5. Избуллаева Г. Педагогика назарияси ва тарихи. II қисм. – Бухоро: Durdona, 2023. – Б. 87.
6. Рахимов У. Таълим жараёнида интерактив методлар. – Тошкент: TDPU, 2017. – Б. 45–52.